



YOSHLARDA KITOBOXONLIKNI TARG'IB QILISH VA KITOBOXONLIK MA'DANIYATNI YUKSALTIRISH.

Jo'rayeva Ozoda Karim qizi

*BuxPU Sport faoliyati va pedagogika fakulteti
bosholang'ich ta'lim yo'nalishi*

Agar Yevropa uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va sa'nat asarlari arxitektura durdonalari tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa sharq uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, matematika, astranomiya, fizika, kimyo, geodeziyaga va tabiiy fanlarga, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyot rivojlanishida namoyon bo'ladi.

I.A.Karimov

"Kitob o'qimaydigan insonning suhbatidan qoching, zero, bemanidir," -deya yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytarli har bir ma'ruza va suhbatlarida bizni kitobxonlikka da'vat etayotirlar; xalqimizning kitobga muhabbat, kitobxonlikka ixlosini oshirish, milliy va jahon adabiyotining sara asarlarini sifatli nashr etish va ularni keng kitobxonlar ommasiga yetib borishi uchun g'amxo'rlik qilmoqdalar- bu ishlarni shukronalik bilan e'tirof etamiz. Zero, ma'rifat va madaniyat kitob mutolaasi bilan hosil bo'ladi. Kitob dunyo va umr mohiyatini anglashga ko'mak beradigan, go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, ezgullikka intilish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'ularini tarbiyalaydigan buyuk qudratdir. Tadqiqot mualifflari kitob o'qish miyadagi asab tolalari sonini oshirishni ta'kidlashmoqda. Shodlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o'qish tushkunlikni davolashning eng samarali vositasidir. Statistika ma'lumotlariga ko'ra umuman kitob o'qimaydigan insonlarning 43%ni qashshoqlikda yashaydi. Savodli insonlar orasida esa qashshoqlikda yashaydiganlar 4% ni tashkil etadi.

Ulug'larimiz kitob haqidagi o'git va tavsiyalarini, nasihatlarini hech qachon qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Mavlono Abdurahmon Jomiy bunday yozganlar:

Anisi kunji tanhoyi kitob ast, Firo'g'i subhi donoi kitob ast.

(Ya'ni, zahmatlar kunjida hamroh kitobdir, donolik suhbatida yog'du kitobdir.)

Ma'lumki, aholining intelektual va ma'naviy-estetik ehtiyojini qondirish, xususan, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar va ma'nab barkamol insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyos. Inson ma'naviyatining yuksalishida dunyoqarashining shakllanishida kitobning o'rni beqiyosdir. U nafaqat bilim bilog'i taffakur xazinasi, balki insonga do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi tarbiyachi hamdir. Shuning uchun ham kiton qadrlanadi. Kitob yuraklarni yuraklarga tutashtiruvchi qalbga ajoyib nur aqlga qudrat beruvchi vositadir. Kitobga oshno bo'lgan odam o'z umrini chiroyli o'tkazishga, odamlarga yaxshilik faqatgina yaxshilik tilashga harakat qiladi.



Kitob fikrlash qobiliyatimizni harakatga keltiruvchi ixchamgina qiroldir. U aqliy tanballigimiz bilan kurashishimizda bizga ko'maklashuvchi tafakkur, quvvat.

Kitob yolg'izlikka do'stdir. U bilan birga bo'lgan inson o'zligini anglaydi. Hayotning – o'ziga xosligining badiiy ko'zgusidir.